

PAPER

JADIDLAR MEROSINING “PEDAGOGIKA TARIXI” MODULIGA INTERAKTIV TATBIQ ETILISHI

Islamova Durdonaxon Rustamxon qizi ¹

¹Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

* islamovadurdona24@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada jadidlar ma'naviy-ma'rifiy merosini zamonaviy ta'lim tizimida, xususan, “Pedagogika tarixi” modulida interaktiv usullar orqali tatbiq etish masalasi yoritilgan. Jadidlarning ilg'or pedagogik g'oyalari o'quv jarayonida raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlar orqali talabalarga yetkazilishi muhim omil sifatida ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqotda jadidlarning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari, ularning milliy uyg'onish davridagi faoliyati hamda hozirgi davr ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, modul darslari davomida talabalarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik va milliy o'zlikni anglash ko'nikmalarini shakllantirishda jadidlar merosining o'rni yoritiladi. Xulosa qismida, “Pedagogika tarixi” fanini interaktiv texnologiyalar yordamida o'qitishda jadidlar ilmiy-ma'rifiy qarashlaridan samarali foydalanish nafaqat ta'lim sifati, balki yosh avlodning vatanparvarlik, ma'naviyat va tarixiy ongini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Key words: Jadidlar merosi, pedagogika tarixi, interaktiv metodlar, raqamli ta'lim, innovatsiya, milliy uyg'onish, mustaqil fikrlash, talaba faolligi, tarixiy ong, ta'lim sifati, milliy o'zlik, ma'naviyat.

Kirish

XXI asrda insoniyat taraqqiyotining ajralmas yo'nalishlaridan biri sifatida ta'lim tizimining raqamlashtirilishi tobora keng quloch yoymoqda. Barcha bosqichlardagi ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tashkil etish, o'quv dasturlarini elektron resurslar bilan boyitish va o'qitish metodikasini raqamli muhitga moslashtirish O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Tarbiya hamda ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan va pedagogika tarixi tajribasidan kelib shunday fikrlar kelib chiqadiki, inson hayoti yagona avlodlar zanjirining bo'g'inidir. Ya'ni, inson ijtimoiy-madaniy an'analar makonida yashaydi, bu uning fe'li, xulq-atvori, intilishlari, qadriyatlari va manfaatlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir qiladi [1]. Zero, “millat yoshlarini yorug' kelajagini ta'minlash, shu maqsadda bilim va tajribani safarbar etish [2]” bugungi davr pedagogikasining ham buyuk maqsadidir. Ayni paytda oliy ta'lim tizimida fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, tarixiy-pedagogik merosdan samarali foydalanish, talabalarda milliy ong, tanqidiy fikrlash, ma'naviy immunitet va ijtimoiy

faollikni shakllantirish kabi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning: “Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston — kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas [3]” — degan chaqiriqlari sohaning o'rganilishiga yana bir turtki bo'ladi.

Metodologiya

Hozirgi holatda “Pedagogika tarixi” modulining raqamli resurslari yetarli darajada jadidlar merosi bilan boyitilmagan; oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar faqat an'anaviy metodlar asosida dars o'tmoqda; raqamli vositalar mavjud bo'lsa-da, ularning metodik integratsiyasi sust; talabalarining raqamli savodxonligi bir tekisda emas, bu mustaqil o'zlashtirishni qiyinlashtirmoqda. Ushbu muammolarning yechimi sifatida “Pedagogika tarixi” modulini o'qitishni takomillashtirish maqsadida maxsus “Jadid bloklari” ma'lumotlarini keltirib o'tamiz va ma'lumotlar asosida modulni o'qitish, talabalarga

milliy o'zlikni zamonaviy tarzda yetkazish usullarini ham ko'rib chiqamiz.

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi kafedrasida T.N.Jo'rayevning ham olib borgan tadqiqotlari asosidagi ilmiy maqolalarida ham "Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash va har bir ta'lim muassasasida virtual o'quv muhitini yaratish kelajakda yosh avlodni yanada barkamol bo'lib o'sishiga hissa qo'shadi [4]"- deya ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham ta'lim tizimini bugungi zamona talablari bilan qurollantirmas ekanmiz, bizning tayyorlagan kadrlarimiz ham kelajakda ushbu qurollardan foydalanishga no'noq bo'lib ulg'ayadilar. Bu zanjirni uzishimiz, interaktiv texnologiyalar asosida virtuallashtirish ta'lim sharoitini yaratishimiz oldimizda turgan muhim masalalardan biridir. Ushbu tadqiqot ta'limni raqamlashtirish sharoitida "Pedagogika tarixi" modulini o'qitish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, o'z mazmun-mohiyati jihatidan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, axborot-kommunikatsiya vositalarini, shuningdek, tarixiy-pedagogik yondashuvni uzviy bog'liq holda tadqiq etishni talab etadi. Shu sababli, tadqiqotda metodologik asos sifatida quyidagi yondashuvlar tanlandi:




Figure 1. Tadqiqotda foydalanilgan metodologik yondashuvlar

Metodologik yondashuvlar:

Tarixiy-pedagogik yondashuv – "Pedagogika tarixi" modulining tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini, shuningdek, jadidlar pedagogik merosini tarixiy nuqtai nazardan o'rganishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuv – modul mazmuni, didaktik komponentlar, raqamli vositalar va pedagogik strategiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

Konstruktivistik yondashuv – talabaning mustaqil bilim olish faoliyatini qo'llab-quvvatlash, interaktiv va raqamli muhitda o'qitish asosida shakllantirilgan.

Komparativ yondashuv – an'anaviy va raqamli o'qitish uslublarining samaradorligini solishtirish orqali zamonaviy usullarning afzalliklarini ochib berishga yordam beradi.

Natija

Tadqiqot mavzusi ko'p komponentli bo'lib, pedagogik texnologiyalar, jadidlar merosini o'rganish, raqamli ta'lim

vositallari, va modul asosida o'qitish metodikasini o'zaro uyg'unlashtirishni talab qiladi. Aynan, modulli tizimda o'qitish samaradorligi yuqori bo'lib, modulli o'qitish tizimida har bir mavzu bo'yicha aniq maqsad, kutilayotgan natijalar va baholash mezonlari belgilangan bo'ladi. Modulda mustaqil ta'lim va interaktiv topshiriqlar muhim o'rin tutadi. O'qituvchi ko'proq fasilitator vazifasini bajaradi. Tadqiqot davomida tarix, madaniyat, pedagogika, raqamli texnologiyalar birlashtirilgan. Jadidlar merosini zamonaviy dars jarayoniga integratsiya qilish jarayonida "Pedagogika tarixi" modulini o'qitishni takomillashtirish maqsadida QR kodli o'quv qo'llanma tuzilgan.

Muhokama

Hozirda o'zlari hayot bo'lmasa-da nomini mangu qilgan bitish va shular kabi bo'lish istagida olim, yozuvchi, o'zbek xalq folklorining qahramonlari obrazlari ta'lim muassasa nomlariga birlashtirilgan. Ammo tarixiy taraqqiyotimizning poydevori bo'lgan jadidlarimiz nomi uchun "Jadid maktablari" degan atama hanuzgacha yo'q. Milliylik ruhini barqarorlashtirish maqsadida "Ruhiy mustaqillik" konsepsiyasi ishlab chiqqan bo'lar edi. Jadidlar bugungi globalashuv davrida milliy o'zlikni yo'qotmaslik uchun madaniy himoya tizimi yaratgan bo'lar edilar. Bunga milliy kinolar, teatr, zamonaviy o'zbek adabiyoti va internetda milliy kontent yaratish orqali erishgan bo'lishlari mumkin edi. Bu tizim mavjud ammo ta'sir doirasi juda ham tor. Milliy kontentlarning aholi o'rtasida tez yoyilishi uchun birdamlikdagi harakat yetishmaydi. Buning uchun esa ular "milliy madaniyatni raqamlashtirish" tushunchasini kengroq targ'ib etishga kirishgan bo'lar edi. Musiqa, qo'shiq, maqom, xalq ertaklari, milliy kiyimlar, turmush tarzini raqamli platformalar orqali ommalashtirish, TikTok, YouTube, Telegramda maxsus milliy brendlar orqali yoshlarning e'tiborini jalb qilishgan bo'lardi. "Milliy odob-axloq kodeksi": Bugungi muhitda, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan begona qadriyatlarga qarshi jadidlar yoshlar uchun yangicha axloqiy mezonlar asosida tarbiya tizimi yaratgan bo'lar edi. Madaniy alternativalar yaratish: Ular ommaviy madaniyatning zararli tomonlariga qarshi o'zlari milliy va zamonaviy uyg'unligida yaratilgan "musbat madaniy brendlar" – masalan, zamonaviy o'zbek animatsiyasi, kinolari, blogerlari, musiqasi orqali qarshi chiqqan bo'lar edi. "Jadid media maktablari": Bolalar va yoshlar uchun tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, axborot tahlili o'rgatiladigan maktablar ochgan bo'lishlari mumkin edi. Jadidlar bugun tirik bo'lganida, ularning islohotlari jamiyatda milliy o'zlikni saqlagan holda modernlikka yetaklaydigan, raqamli transformatsiyaga moslashgan, global tahdidlar oldida o'zligini yo'qotmagan avlod tarbiyasiga yo'naltirilgan bo'lardi. "Jadidlar bugun ham zamon oldida javobgar bo'lib qolgan bo'lur edilar – ular faqat o'tmishni emas, kelajakni o'zgartiruvchi kuch sifatida harakat qilgan bo'lar edilar." – deya yakunlaymiz biz o'z savolimizga javoblarni. Endi aynan shu savollarning javoblarini tadqiqot davomida tahlil etiladigan "Jadid bloklari" tizimida yanada kengroq yoritib ketamiz. "Jadid bloklari tizimi"- hozirgi raqamlashtirilgan ta'limda zamonaviy texnologiyalar asosida "Pedagogika tarixi" modulini o'qitish tizimini takomillashtirish maqsadida mavjud o'quv darsliklarga kiritilgan ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda jadidlar merosining tahliliy ko'rinishlari interaktiv usulda taqdim etiladi.

Xulosa

Ta'limni raqamlashtirish sharoitida "Pedagogika tarixi" modulini o'qitishda jadidchilik harakati O'zbekiston ma'naviy-ma'rifiy tarixida milliy uyg'unlash va zamonaviy ta'lim asoslarini yaratishga qaratilgan harakat sifatida alohida o'rin tutadi. Avloniy,

Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori kabi jadid namoyandalari tomonidan yozilgan asarlar, darsliklar va publitsistik maqolalar bugun “Pedagogika tarixi” modulining mazmuniy asosini tashkil qilishi mumkin. Ularning raqamlashtirilgan holatda ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik ehtiyojlarga mos keladi. Jadidlar haqida mavjud ma’lumotlarning xammasi ham raqamli sharoitga integratsiya qilinmagan. Bu yo’nalish, bu soha ham o’z mutaxassislarini kutmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev “Bilimli avlod-buyuk kelajakning,tadbirkor xalq-farovon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”.O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 26 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan .2018-yil 7-dekabr.
2. Sh.M Mirziyoyev “Yangi O’zbekiston strategiyasi” -T.: O’zbekiston, 2021y, 57-bet
3. L.I.Jamolova “Ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda ahmad donish asarlarining ahamiyati.” Maqola. “Ta’lim jarayonida innovatsion g’oyalar va texnologiyalarni joriy qilish - zamonaviy ta’limning bosh strategiyasi” mavzusidagi Respublika ilmiyamaliy konferensiya materiallari . Buxoro muhandislik texnologiya instituti akademik litseyi 2025-yil 26-aprel. 457 b
4. Jurayev, Tuychi. “Raqamli ta’limda innovatsion yondashuv (m-learning misolida)”.202-210b.2021y
5. https://www.researchgate.net/publication/367581974_raqamli_ta'limda_innovatsion_yondashuv_m-learning_misolida